

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirining 2024-yil «4» martdagি
58-sonli buyrug‘iga
1-ilova

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
tomonidan tizim tashkilotlari, oliy, o‘rta maxsus va professional
ta’lim muassasalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni tahlil qilish
va ularning natijalarini e’lon qilish tartibi to‘g‘risida**

YO‘RIQNOMA

1-bob. Umumiy qoidalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tizim tashkilotlari, oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni tahlil qilish va ularning natijalarini e’lon qilish tartibi to‘g‘risida Yo‘riqnomma (*keyingi o‘rinlarda – Yo‘riqnomma*) O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (*keyingi o‘rinlarda – Vazirlilik*) tomonidan tizim tashkilotlari, oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalarida (*keyingi o‘rinlarda - ta’lim muassasalari*) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni tahlil qilish va natijalarini e’lon qilish tartibini belgilaydi.

2. Qonun hujjatlarida vazirlik tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni tahlil qilishda ushbu Yo‘riqnomadan boshqa talablar belgilangan taqdirda, qonun hujjatlari talablariga rioya etiladi.

3. Yo‘riqnomanining asosiy maqsadi tizim tashkilotlari, ta’lim muassasalarida korrupsiya holatining tizimli tahlil qilinishini ta’minalash, korrupsiyaga oid xavf-xatarlar yuqori bo‘lgan sohalar hamda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, ularni bartaraf etish choralarini ko‘rish hisoblanadi.

4. Yo‘riqnomanining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

tizim tashkilotlari, ta’lim muassasalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni tahlil qilish va ularning natijalarini e’lon qilishga doir ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish;

tashkilot va ta’lim muassasalarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni tahlil qilish va natijalarini e’lon qilish yo‘nalishida yagona amaliy yondashuv shakllanishini ta’minalash;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash bo‘yicha tahlillar o‘tkazishda xodimlar tomonidan nojo‘ya xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish, bunday salbiy holatlarni keltirib chiqaradigan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan profilaktik tadbirlarni amalga oshirish.

5. Ushbu Yo‘riqnomada quyidagi tushunchalar qo‘llaniladi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni tahlil qilish – korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni aniqlash maqsadida davlat organlari (*tashkilotlari*)da o‘tkaziladigan ma’lumotlarni yig‘ish, umumlashtirish, tahlil qilish va baholash (*keyingi o‘rinlarda – tahlil*) bilan bog‘liq faoliyat;

rejali tahlil – davlat organi (*tashkiloti*) rahbarining buyrug‘i bilan tasdiqlanadigan ish rejaga muvofiq korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash bo‘yicha o‘tkaziladigan tahlil;

rejadan tashqari tahlil – davlat organi (*tashkiloti*) tomonidan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va holatlarda amalga oshiriladigan ish rejasida ko‘rsatilmagan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash bo‘yicha o‘tkaziladigan tahlil;

tahliliy ma’lumotnoma – tahlil natijasida aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlar, ularning kelib chiqishi sabab va shart-sharoitlari haqida ma’lumotlar, mazkur xavf-xatarlarni bartaraf etish bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflarni o‘z ichiga olgan, tahlil yakuni bo‘yicha tuziladigan hujjat.

2-bob. Tahlillarni tashkil qilish

6. Quyidagilar tahlillarni o‘tkazish uchun asos bo‘ladi:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining topshiriqlari, vazirlikning buyruqlari;

Vazirlik, uning tizimidagi tashkilotlar va ta’lim muassasalarining ish rejalari;

tizim tashkilotlari va ta’lim muassasalarida o‘tkazilgan monitoring hamda o‘rganishlar asosidagi dastlabki xulosalar;

tizim tashkilotlari va ta’lim muassasalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlar mavjudligi haqida olingan ma’lumotlar asosida tayyorlangan bildirgi;

jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlari, erkinliklarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to‘g‘risidagi murojaatlar;

ommaviy axborot vositalari tomonidan tarqalgan xabarlar, ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirilgan ma’lumotlar;

qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa asoslarga muvofiq o‘tkaziladi.

7. Tahlillar vazirlikning buyrug‘iga asosan amalga oshiriladi.

Buyruqda tahlilning maqsad va vazifalari, tahlil o‘tkaziladigan tashkilot va ta’lim muassasasining nomi, tahlil davri va uni o‘tkazish muddatlari, tahlilni o‘tkazish maqsadida tuzilgan ishchi guruhi tarkibi, ularning ismi, familiyasi va lavozimi, hujjatlarni umumlashtirish va tahlil qilish vazifalarini amalga oshiruvchi xodimlarning ismi, familiyasi va lavozimi (*agar tahlilni amalga oshirish uchun bir nechta guruh tuzilgan bo‘lsa*) hamda tahlil natijasini muhokama qilishga doir masalalar ko‘rsatiladi.

8. Tahlil o‘tkazish haqidagi buyruqqa tahlilni amalga oshirish rejasi ilova qilinadi.

9. Tahlil o'tkazish bo'yicha ishchi guruh tuzilganda uning tarkibi kamida ikki nafar xodimdan iborat bo'lib, ulardan biri ishchi guruh rahbari etib tayinlanadi.

Zarur holatlarda tahlillarni o'tkazish uchun manfaatdor davlat organlari va tashkilotlaridan kelishuv asosida soha bo'yicha mutaxassislarni jalg qilish mumkin.

10. Ishchi guruh rahbari tahlil boshlanishidan besh kun oldin tahlil o'tkazish uchun asos bo'lgan buyruq va tuzilgan reja loyihalarini vazirlikning tegishli tarkibiy tuzilmasiga taqdim qiladi.

3-bob. Tahlillarni o'tkazish

11. Tahlil faqat buyruqda ko'rsatilgan xodimlar tomonidan mehnat qonunchiligidagi belgilangan ish vaqtida davomida o'tkazilishi lozim.

12. Mas'ul xodim tahlil o'tkazish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni olish maqsadida tizim tashkiloti va ta'lim muassasasiga so'rovlari yuboradi va kerakli ma'lumotlar bazasini shakllantiradi.

13. Tahlillarni o'tkazish uchun ishchi guruh buyruqda ko'rsatilgan tizim tashkiloti va ta'lim muassasasiga borib, dastlab tizim tashkiloti va ta'lim muassasasi rahbarini tahlil o'tkazish to'g'risidagi buyruq bilan tanishtiradi va undan zarur ma'lumotlar bilan ta'minlanishi so'raladi.

14. Tahlillar uchun olingan ma'lumotlar tahlil o'tkazilayotgan tizim tashkiloti va ta'lim muassasasi mansabdor shaxsi tomonidan rasmiy ravishda tasdiqlangan bo'lishi lozim. Tahlil uchun foydalilanigan ma'lumotlarning to'g'ri va haqqoniyligi uchun rasmiy ma'lumot olingan tizim tashkiloti va ta'lim muassasasi rahbari mas'ul hisoblanadi.

15. Tahlillar o'tkazishda shakllantiriladigan ma'lumotlar bazasiga quyidagilar kiritilishi mumkin:

tahlilga aloqador bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar;

tahlil bo'yicha statistik ma'lumotlar;

korrupsiyaviy huquqbazarliklar bo'yicha tegishli huquqni muhofaza qiluvchi yoki nazorat organlarining huquqiy ta'sir chora qo'llash bo'yicha hujjatlari;

tahlil bo'yicha amaliy misollar va boshqa turdag'i ma'lumotlar.

16. Tizim tashkilotlari va ta'lim muassasalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash bo'yicha tahlillar o'tkazishda quyidagi yo'nalishlardan foydalanish tavsiya etiladi:

korrupsiyaviy huquqbazarliklar statistikasiga oid ma'lumotlarni tizim tashkiloti va ta'lim muassasalari tuzilmalari, sub'ektlari va huquqbazarliklarni sodir etish usullari bo'yicha umumlashtirish, raqamlarni o'zaro taqqoslash va foiz ko'rsatkichlari bo'yicha yoritish;

korrupsiyaviy huquqbazarliklar natijasida davlat va jamiyat manfaatlariga yetkazilgan hamda undirilgan zararlar miqdorini aniqlash, katta miqdorda zararlar yetkazish bilan bog'liq jinoyatlar turini ajratib olish;

korrupsiyaga oid murojaatlar bo'yicha statistik ma'lumotlarni umumlashtirish, murojaatlar ortishiga sabab bo'layotgan tizimli muammolarni aniqlash;

ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan va ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirilgan korrupsiyaviy holatlar bilan bog'liq maqolalarni umumlashtirish va ularga nisbatan jamoatchilikning munosabatlarini o'rganish;

ijtimoiy so'rovlар o'tkazish yoki mavjud ijtimoiy so'rovlар natijalarini umumlashtirish;

tahlil o'tkazilayotgan tizim tashkiloti yoki ta'lim muassasining korrupsiyaga qarshi kurashish "komplaens-nazorat" tizimini boshqarish tuzilmasi (*agar mavjud bo'lsa*) faoliyatini o'rganish va baholash;

ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashga doir bo'lgan qonunchilik talablarini bajarilishi va bu borada amalga oshirilgan ishlarni umumlashtirish;

normativ-huquqiy hujjatlar, tizim tashkiloti va ta'lim muassasining ichki hujjatlarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish va boshqalar.

17. Tahlilni amalga oshirish jarayonida tahlil qilinayotgan tizim tashkiloti va ta'lim muassasalaridagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularni bartaraf etishga doir tashkiliy, amaliy va normativ yo'nalishdagi takliflar ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratiladi.

18. Tahlil o'tkazish muddati buyruq rasmiylashtirilgan kundan boshlab o'ttiz ish kunidan oshmasligi kerak. Tahlil o'tkazish bo'yicha ishchi guruh rahbarining asoslantirilgan bildirgisi asosida ushbu muddat oliv ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining buyrug'i bilan yana o'ttiz ish kuni muddatigacha uzaytirilishi mumkin. Tahlil o'tkazish umumiyy muddati oltmish ish kunidan oshib ketishi mumkin emas.

4-bob. Tahlil natijalarini rasmiylashtirish

19. Mas'ul xodim yoki ishchi guruh tomonidan tahlil natijasi yuzasidan tahliliy ma'lumotnomma tuziladi. Tahliliy ma'lumotnomma tahlil muddati tugashidan besh kun avval tuziladi. Tahlil o'tkazish bo'yicha ishchi guruh tuzilgan hollarda tahliliy ma'lumotnomma ishchi guruh a'zolari bilan kelishiladi.

20. Tahliliy ma'lumotnomma mas'ul xodim yoki ishchi guruh a'zolari tomonidan tasdiqlangan holda kelishish uchun vazirlik tarkibiy tuzilmasi rahbariga taqdim qilinadi. Tarkibiy tuzilma rahbari tahliliy ma'lumotnomani ikki ish kuni muddatida ko'rib chiqadi va oliv ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziriga tasdiqlash uchun kiritadi. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri ikki ish kunlik muddatda tahliliy ma'lumotnomani ko'rib chiqib, imzolaydi yoki qo'shimcha o'rganish tadbirlarini o'tkazish uchun qaytaradi.

Tahliliy ma'lumotnomma tarkibiy tuzilma rahbari va oliv ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri tomonidan ko'rib chiqilishi davomida unga o'zgartirish hamda qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

21. Tahliliy ma'lumotnomma davlat tilida tuziladi, zaruratga ko'ra ko'pchilik aholi muloqot qiladigan boshqa tillarda (*rus, qoraqalpoq va b.*) ham tuzilishi mumkin.

22. Tahliliy ma'lumotnomaning varag'i, qoida tariqasida, A4 standart varaq 1,2 qator oralig'ida yozilishi, har bir bet yuqoridan va pastdan 2 sm, chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm hoshiyaga ega bo'lishi hamda xatboshi besh-olti belgiga teng va bir xilda bo'lishi talab etiladi.

Matnni kompyuter vositasida bosib chiqarishda "Times New Roman" shriftida va uning hajmidan kelib chiqib 14 o'chamli shriftida yoki shunga o'xshash shriftini qo'llagan holda Microsoft Word matn redaktoridan foydalanish tavsiya qilinadi.

Tahliliy ma'lumotnoma varaqlari izchil ketma-ketlikda raqamlanadi.

Tahliliy ma'lumotnomaning hajmi, qoida tariqasida, 3-10 varaqni tashkil qilishi lozim.

23. Tahliliy ma'lumotnoma rasmiy til uslubidan va yuridik atamashunoslikdan foydalanilgan holda umume'tirof etilgan grammatik, orfografik va punktuatsiya qoidalari asosida tuziladi.

Unda og'zaki nutq shakllari, eskirgan hamda ko'p ma'noni anglatadigan so'zlar va iboralar, majoziy taqqoslashlar, sifatlashlar, kinoyalarning ishlatalishiga yo'l qo'yilmaydi.

24. Tahliliy ma'lumotnomada o'zgartirish, chizish, bo'yash yoki tuzatish kiritishga yo'l qo'yilmaydi. Unda xatoliklar aniqlangan taqdirda, ushbu xatoliklar tahlil o'tkazish uchun mas'ul xodim va vazirlikning tarkibiy tuzilmasi rahbari tomonidan ko'rib chiqilib, bartaraf etilishi mumkin.

25. Tahliliy ma'lumotnoma kirish, tavsif va xulosa qismlardan iborat bo'ladi.

Kirish qismida tahlil o'tkazilayotgan tashkilot yoki muassasa nomi, vaqt va joyi, tahlil davri va yo'nalishi, tahlil o'tkazishga asos, tahlil o'tkazayotgan mas'ul xodimlar hamda tahlil qilinayotgan tashkilot (*yo'nalish, soha*) xususida qisqacha ma'lumot ko'rsatiladi.

Tavsif qismida tahlil yo'nalishi bo'yicha mavjud korrupsiyaviy xavf-xatarlar, ularni keltirib chiqaruvchi sabab va omillar, korrupsiyaviy holatlarning mavjudligini tasdiqlovchi amaliy misollar, statistik va boshqa ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Xulosa qismida tahlil o'tkazilgan yo'nalishda aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlar, kamchilik va muammolarni bartaraf etish yuzasidan ishlab chiqilgan takliflar ular tavsif qismida joylashgan ketma-ketlik bo'yicha ko'rsatiladi.

Tahliliy ma'lumotnomada boshqa ma'lumotlar ham ko'rsatilishi mumkin.

26. Tahliliy ma'lumotnomaga unda ko'rsatilgan ma'lumotlarni tasdiqlovchi jadval, ro'yxat, diagramma, chizma va boshqa hujjatlar ilova qilinishi mumkin.

27. Tahliliy ma'lumotnoma bir nusxada tuzilib, tahlil o'tkazish uchun mas'ul xodim yoki ishchi guruh a'zolari va tarkibiy tuzilma rahbari tomonidan imzolanadi hamda oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri tomonidan tasdiqlanadi. Zarur hollarda tahlil o'tkazilgan tizim tashkiloti yoki ta'lim muassasa rahbari tahliliy ma'lumot bilan tanishtiriladi.

28. Tahliliy ma'lumotnoma vazirlikning tahlil o'tkazishga mas'ul tarkibiy bo'linmasida ilovalari va asoslantiruvchi hujjatlari bilan elektron shaklda saqlanadi.

29. Tahliliy ma'lumotnoma oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri tomonidan imzolangan kuni tahlil yakunlangan hisoblanadi.

30. Tahlil yakuni bo'yicha tuzilgan tahliliy ma'lumotnoma nusxasi boshqa manfaatdor davlat organlari va tashkilotlariga vazirlik rahbariyatining roziligi bilan berilishi mumkin.

31. Tahlil yakunlari bo'yicha tuzilgan tahliliy ma'lumotnoma oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri yoki uning o'rinosi bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va zaruratga asosan boshqa davlat organlari (*tashkilotlari*)ga ma'lumot va ishlab chiqilgan takliflarni ko'rib chiqish uchun kiritilishi mumkin.

32. Tahlil yakuni bo'yicha aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish yuzasidan vazirlik va tegishli tizim tashkiloti yoki ta'lim muassasasi hamkorlikda chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqib, ijrosini ta'minlaydi.

5-bob. Tahlil natijalarini ochiqlash

33. Tahlil natijalarini ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilish, uchinchi shaxslarga taqdim etish oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining ruxsati bilan amalga oshiriladi.

34. Tahlil natijalarini e'lon qilish belgilangan taqdirda mas'ul xodim tomonidan ommaviy axborot vositalari yoki ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilish uchun mo'ljallangan qisqa ma'lumotnoma tayyorlanadi.

Mazkur ma'lumotnoma vazirlikning Axborot xizmati tomonidan ikki ish kunda ko'rib chiqilib, davlat siyosati, fuqarolarning kayfiyati, tizim tashkiloti va ta'lim muassasasining obro'siga salbiy ta'sir qilishi mumkin bo'lgan, ommaviy muhokamalarni keltirib chiqaradigan va boshqa salbiy oqibatlarga olib keladigan ma'lumotlarni chiqarib tashlash masalasi ko'rib chiqiladi.

Ushbu ma'lumotnoma mas'ul ijrochi va tarkibiy tuzilma rahbari tomonidan imzolanib, oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri tomonidan tasdiqlanadi va e'lon qilish uchun vazirlik Axborot xizmatiga taqdim qilinadi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri va vazirlikning tarkibiy tuzilma rahbari tomonidan ma'lumotnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish mumkin. Axborot xizmati tomonidan rasmiy tasdiqlangan ma'lumotnoma o'zgartirish va qo'shimchalarsiz asl holida e'lon qilinadi.

Tahlil natijalari uchinchi shaxslarga (*davlat organlari va tashkilotlari, jismoniy va yuridik shaxslarga, boshqalar*) rasmiy so'rov (*iltimosnoma, murojaat va h.k*) asosida ularga javob xati yoki tahliliy ma'lumotnoma nusxasi yohud ulardan ko'chirma ko'rinishida berilishi mumkin.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar

35. Tahlillarning to‘liq va xolisona o‘tkazilishiga, tahliliy ma’lumotnomada ko‘rsatilgan ma’lumotlarning asosliligi va ishonchliligiga tahlil o‘tkazgan mas’ul xodim yoki ishchi guruh rahbari shaxsan mas’uldir.

36. Ushbu Yo‘riqnomalarining buzilishida sharoit yaratgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar
vazirining 2024-yil «4» martdagi
58-sonli buyrug'iiga 2-ilova

TAHLILIY MA'LUMOTNOMA

Namuna

20 ____ yil “____” _____

Joylashuv hududi

- Tahlil o'tkazilgan tashkilot: _____ — (*tizim tashkiloti yoki ta'lif muassasasi nomi*)
- Tahlil boshlangan sana: _____
- Tahlil tamomlangan sana: _____
- Tahlil o'tkazish uchun asos: _____ — Vazirlikning buyrug'i (*buyruq raqami va qabul qilingan sanasi*)
- Ishchi guruh a'zolarining F.I.O. va lavozimi: _____ — Ishchi guruh rahbari: _____
- Tahlil davr: _____ — A'zolar: _____ -yillar
- Tahlil o'tkazilgan soha: _____
- Tahlilda ishtirok etgan tashkilot xodimi: _____ — (*muassasaning mas'ul xodimining F.I.O., lavozimi*)
- Jalb qilingan mutaxassis: _____
- (*Tizim tashkiloti yoki ta'lif muassasasi nomi*) mas'ul xodimlari ishtirokida taqdim qilingan hujjatlarni tanlab olib o'rGANISH yo'li bilan amalga oshirildi. Jumladan:
-
-
-

Ichki nazorat tuzilmalari faoliyatini yo'lga qo'yish, budjet mablag'laridan foydalanish, ochiqlikni ta'minlash, shuningdek, korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni aniqlash va oldini olishda muayyan xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilgan. Xususan,

kabi qonun talablariga amal qilinmaganlik holatlari aniqlandi.

Tahlil natijasi bo'yicha quyidagilar tavsiya etiladi:

Ma'lumotnomani tuzdik:

Ishchi guruh rahbari:

Ishchi guruh a'zosi:

Ma'lumotnomaga bilan tanishdim, e'tirozlarim _____ (mayjud yoki mavjud emas) va bir nusxa oldim:

Tizim tashkiloti yoki ta'lif
muassasasi rahbari:

Sana: _____ yil

(imzo)

F.I.O